

DEVELOPING HUMAN CAPITAL IN ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN: COMPETENCY FRAMEWORK AND EDUCATIONAL INFRASTRUCTURE

Abdullayev Azamat Akbar o'g'li

Independent Researcher, Tashkent State University of Economics

Abstract

The 2026 law on Islamic banking activity created a legal foundation for the market, but its practical success depends on qualified human capital. The article analyses the global talent gap in Islamic finance, Uzbekistan's fragmented educational landscape and its personnel needs, and substantiates the author's proposed competency framework, personnel-assessment methodology and integrated education infrastructure.

Keywords

Islamic finance, human capacity, competency framework, education infrastructure, certification, higher education, Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA SOHASIDA KADRLAR SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH: KOMPETENSIYALAR DOIRASI VA TA'LIM INFRATUZILMASI

Abdullayev Azamat Akbar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi,

aa.abdullayev01@gmail.com

Annotatsiya. 2026-yilgi islomiy bank faoliyati to'g'risidagi qonun bozor uchun huquqiy asos yaratdi, biroq uning amaliy muvaffaqiyati malakali kadrlarga bog'liq. Maqolada islomiy moliya sohasidagi global kadrlar tanqisligi, O'zbekistondagi tarqoq ta'lim manzarasi va ehtiyoj tahlil qilinadi hamda muallif tomonidan taklif etilgan

kompetensiyalar doirasi, kadrlarni baholash metodikasi va yaxlit ta'lim infratuzilmasi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: islomiy moliya, kadrlar salohiyati, kompetensiyalar doirasi, ta'lim infratuzilmasi, sertifikatlash, oliy ta'lim, O'zbekiston.

Аннотация. Закон об исламской банковской деятельности 2026 года создал правовую основу для рынка, однако его практический успех зависит от квалифицированных кадров. В статье анализируются глобальный дефицит кадров в сфере исламских финансов, фрагментированный образовательный ландшафт Узбекистана и потребность в специалистах, а также обосновываются предложенные автором рамка компетенций, методика оценки кадров и целостная образовательная инфраструктура.

Ключевые слова: исламские финансы, кадровый потенциал, рамка компетенций, образовательная инфраструктура, сертификация, высшее образование, Узбекистан.

Kirish

2026-yilda islomiy bank faoliyati to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi O'zbekistonda Shariahga muvofiq moliya bozorini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi¹. Biroq har qanday yangi moliya bozorining muvaffaqiyati avvalo malakali kadrlarga bog'liq. Islomiy moliya an'anaviy bankchilikdan murakkabroq, zero u ham chuqur moliyaviy bilim, ham shariat asoslarini bilishni talab qiladi. Shu bois kadrlar salohiyatini shakllantirish qonunni amaliyotga tatbiq etishning hal qiluvchi shartlaridan biridir.

Asosiy qism

Islomiy moliya sohasidagi kadrlar tanqisligi global muammodir. Soha yiliga 15–20 foiz o'sayotgani bois yaqin yillarda butun dunyoda kamida 50 ming mutaxassis zarur-

¹O'zbekiston Respublikasining "Islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-1126, 27.03.2026 // URL: <https://lex.uz>.

ligi baholangan². Malayziyada islomiy bank institutlarida kadrlar taqchilligi 82 foizni tashkil etadi³, Pokistonda esa to'liq islomiy tizimga o'tish muddati belgilangani sababli bitta yetakchi bank tarmog'ining o'zida 4 mingga yaqin malakali bankir talab etiladi⁴. Bu raqamlar yangi bozorlar uchun kadrlar masalasi qanchalik keskin ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston uchun bu ehtiyoj endigina shakllanmoqda. Izlanishlar natijasida, islomiy moliya bozori 2030-yilga rejalashtirilgan darajada rivojlansa, to'rt darajada, ya'ni rahbariyat, mutaxassis, operatsion xodim va Shariy nazorat kengashlari darajalarida, bir ming ikki yuzdan bir ming uch yuzgacha malakali kadr talab etiladi. Hozircha bunday hajmdagi kadrlarni tayyorlaydigan yaxlit milliy tizim mavjud emas.

O'zbekistonda islomiy moliya ta'limi bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan. Bank-moliya akademiyasi magistratura darajasida "Islomiy moliya" yo'nalishini taklif etadi⁵, Xalqaro islom akademiyasida esa "Islom iqtisodiyoti va moliyasi" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlanadi⁶. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ham tegishli kurslar joriy etilgan. Eng muhim institutsional qadam sifatida oliy ta'lim klassifikatoriga "Islomiy moliya" hamda "Islom iqtisodiyoti va moliyasi" yo'nalishlari rasmiy kiritildi⁷. Biroq bu tashabbuslar tarqoq bo'lib, yagona milliy tizimga birlashmagan, dasturlar mazmuni va sertifikatlash standartlari bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilmagan.

Xalqaro tajriba yaxlit yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Islom taraqqiyot banki o'z a'zo davlatlaridagi kadrlar tanqisligini bartaraf etish uchun maxsus Islamic Finance Talent Development Programme dasturini ishlab chiqqan, Bahrayndagi AAOIFI va

²Education: Islamic finance skills in high demand // Gulf News. 2018 // URL: <https://gulfnews.com>.

³Talent Development for Islamic Banking Institutions / Asian Institute of Finance. 2018.

⁴Islamic banking in Pakistan sees robust growth, but talent gap remains (23.05.2024) // The News International // URL: <https://www.thenews.com.pk>.

⁵The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan / UNPRME. 2025 // URL: <https://www.unprme.org>.

⁶International Islamic Academy of Uzbekistan / Times Higher Education. 2026 // URL: <https://www.timeshighereducation.com>.

⁷O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri buyrug'i. № 75, 25.02.2026 // URL: <https://lex.uz>.

Malayziyadagi INCEIF esa xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlash hamda o‘quv tizimlarini taklif etadi⁸. Bu modellarning umumiy xususiyati shundaki, ular ta‘lim, malaka standartlari va sertifikatlashni yagona doirada birlashtiradi.

Shu nuqtai nazardan muallif tomonidan O‘zbekiston uchun islomiy moliya kompetensiyalari doirasi taklif etiladi. Doira to‘rt malaka darajasini va o‘ttiz sakkizta kompetensiyani qamrab oladi hamda har bir daraja uchun zarur bilim, o‘quv soatlari va sertifikat turini belgilaydi. Doira o‘tish iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilgan, ya‘ni an‘anaviy moliya tizimidan kelgan kadrlarni qayta tayyorlashni ham hisobga oladi. Unga qo‘shimcha ravishda muallif tomonidan kadrlarni tanlash va baholash uchun to‘rtta mezon bo‘yicha 100 ballli standartlashtirilgan metodika ishlab chiqilgan, bu esa malaka talablarini ob‘ektiv va qiyoslanadigan qiladi.

Ushbu doira yaxlit ta‘lim infratuzilmasi orqali amalga oshirilishi lozim. Bunda xalqaro standartlar bo‘yicha hamkorlik, milliy sertifikatlash darajalari va “markaz-tarmoq” (hub-and-spoke) tamoyiliga asoslangan universitetlararo konsorsium birlashtiriladi. Bu yondashuv tarqoq kurslarni yagona milliy tizimga aylantiradi va kadrlar tayyorlashni bozor ehtiyojiga bog‘laydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 2026-yilgi qonun islomiy moliya bozori uchun huquqiy poydevor yaratgan bo‘lsa-da, uning amaliy muvaffaqiyati malakali kadrlarga bog‘liq. Global tajriba kadrlar tanqisligi yangi bozorlar uchun jiddiy to‘siq ekanini, O‘zbekistondagi hozirgi tarqoq ta‘lim tashabbuslari esa yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu bois quyidagilar tavsiya etiladi: islomiy moliya kompetensiyalari doirasini milliy standart sifatida joriy etish, ta‘lim dasturlari va sertifikatlashni yagona tizimga birlashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rasmiylashtirish hamda kadrlarni baholashning

⁸Issues and Challenges in Developing Human Resources in Islamic Finance / Finance Accreditation Agency // URL: <https://www.faa.org.my>.

standartlashtirilgan metodikasini qo'llash. Aynan yaxlit kadrlar tayyorlash tizimigina qonun ochgan imkoniyatni haqiqiy va barqaror islomiy moliya bozoriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-1126, 27.03.2026 // URL: <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri buyrug'i. № 75, 25.02.2026 // URL: <https://lex.uz>.
3. Education: Islamic finance skills in high demand // Gulf News. 2018 // URL: <https://gulfnews.com>.
4. Islamic banking in Pakistan sees robust growth, but talent gap remains (23.05.2024) // The News International // URL: <https://www.thenews.com.pk>.
5. Issues and Challenges in Developing Human Resources in Islamic Finance / Finance Accreditation Agency // URL: <https://www.faa.org.my>.
6. Nazarov N. Islamic Financing in Uzbekistan: Current Trends, Challenges and Prospects // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. 2025. Vol. 1. № 3. C. 195–199.
7. Talent Development for Islamic Banking Institutions / Asian Institute of Finance. 2018.
8. The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan / UNPRME. 2025 // URL: <https://www.unprme.org>.
9. International Islamic Academy of Uzbekistan / Times Higher Education. 2026 // URL: <https://www.timeshighereducation.com>.